XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-17-126-5-74-K/25 Nurota tumani

Nurota tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-22-165-5-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Navoiy viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-12/20-01-38/3536-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputadlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-22-165-5-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, Nurota tuman mahalliy budjetining 2026-yil uchun daromadlari 101 590 475,0 ming so‘m, xarajatlari 109 604 696,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 8 014 221,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.2026-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2026-yilga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2026-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4.2026-yil uchun tumanning hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2026-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2026-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7.2026-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat budjetidan Nurota tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8.2026-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi o‘tgan yilgidan kam bo‘lmagan miqdorda 1 444 334,0 ming so‘m etib tasdiqlansin.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9.2026-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 023 653,0 ming so‘m miqdorda belgilansin.

10.Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni hududda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

11.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2026-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2026-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i;

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

Mol mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

Aylanmadan olinadigan soliq;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

Yuridik shaxslar yer solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

Davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Bo‘riyev, Soliq inspeksiyasi F.Usmonov mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

12.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov, Kadastr agentligi tuman bo‘limi E.Ro‘zimurodov 2026-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kvadrat metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta'minlasin.

14.Tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi Sh.Boboyev tuman soliq inspeksiyasi F.Usmonov bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi I.Amonov jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17.Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi tuman bo‘limi Sh.Yalg‘ashev va tuman soliq ispeksiyasi F.Usmonov bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

18.Kengashning mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

19.Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma'sul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligi rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli korxona va tashkilotlar raxbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

22.Mazkur qarorni tuman ommaviy-axborot tarmoqlarida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23.Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **FAYZIYEV AZAMAT ISMATOVICH**

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Nurota tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi

Foiz miqdorida

№	Ko‘rsatkichlar	2026 yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur'ati, foizda	105,0
2.	Hududiy sanoat o‘sish sur'ati, foizda	105,0
3.	Qurilish o‘sish sur'ati, foizda	105,2
4.	Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘sish sur'ati, foizda	103,2
5.	Xizmatlar o‘sish sur'ati, foizda	115,0

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Nurota tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Miqdori (ming so‘mda)
JAMI		**101 590 475**
1	Foyda solig‘i	2 695 075
2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 283 600
3	Aylanmadan olinadigan soliq	3 578 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	29 254 500
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 296 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 458 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 628 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 868 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3 344 800
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 134 000
12	Davlat boji	3 496 000
13	Yig‘imlar	20 360 000
14	Jarimalar	2 862 000
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	322 000
16	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	5 530 500
17	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	480 000

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Tuman budjetidan 2026-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

MING SO‘M

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**109 604 696,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo‘limi	29 717 301,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 213 600,0
2	Madaniyat bo‘limi	6 209 285,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 136 441,0
4	Sport bo‘limi	7 727 834,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 316 340,0
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	0,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0,0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	142 217,0
10	Hokimiyat	26 597 177,0
	shundan:	0,0
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 287 841,0
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 870 370,0
	Madaniyat bo‘limi	171 520,0
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	509 910,0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	212 639,0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	501 908,0
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	463 373,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	164 222,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*13 667 695,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*660 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 444 334,0*

11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 176 671,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*105 815,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 070 856,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	25 399 647,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Nurota tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori

Foiz miqdorida

T/R	Soliq turlari	Tuman mahalliy budjetiga ajratma me'yori (foizda)
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	100
2	Aksiz solig‘i (Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i)	50
3	Foyda solig‘i	50
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100
5	Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	100
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100
7	Ayrim turdagi tovarlar va xizmatlar uchun soliq	0
8	Davlat boji	100

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun Nurota tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

Ming so‘mda

Hududnomi	**Daromad**	**Xarajat**
Nurota tumani	101 590 475	109 604 696

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-126-5-74-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yil uchun Navoiy viloyatining viloyat budjetidan Nurota tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

Ming so‘mda

№	**Hudud nomi**	**Summa**	*Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*
1	Nurota tumani	8 014 221	0